

Date: 1st November-2025

**REVMATOID ARTRITLI BEMORLARDA ANEMIYANING UCHRASHI VA
UNING KLINIK AHAMIYATI**

Akobir Husinov Azam o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

1-son Ichki kasalliklar kafedrası assistenti

Kirish: Revmatoid artrit (RA) — tizimli autoimmun kasallik bo'lib, surunkali yallig'lanish bilan kechadi. RA bilan og'rigan bemorlarda anemiya tez-tez uchraydi va bu holat kasallik og'irligini oshiradi. Yallig'lanish fonida eritropoezning susayishi, temirning o'zlashtirilishining buzilishi va surunkali sitokin faolligi natijasida "yallig'lanish anemiyasi" shakllanadi. Shu sababli anemiyani aniqlash va baholash RA ni nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Anemiya RA da turli mexanizmlar orqali rivojlanadi: Surunkali yallig'lanish anemiyasi (ACD) — eng keng tarqalgan shakl bo'lib, sitokinlar (IL-6, TNF- α) ta'sirida temirning utilizatsiyasi va eritropoez jarayonining buzilishi natijasida yuzaga keladi. Temir tanqisligi anemiyasi (IDA) — uzoq davom etuvchi yallig'lanish va dori vositalar (NSAID, GKS) fonida oshqozon-ichakdan qon yo'qotilishi natijasida rivojlanadi. Kamroq hollarda B12 yoki folat yetishmovchilik anemiyasi kuzatiladi. Anemiyaning mavjudligi RA bemorlarida umumiy holatning og'irlashishi, charchoqlik, jismoniy faollikning pasayishi va yurak-qon tomir asoratlari xavfini oshiradi. Shu sababli RA da anemiyani erta aniqlash, turini farqlash va to'g'ri davolash muhim klinik ahamiyatga ega.

Maqsad: Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda anemiyaning uchrash chastotasini aniqlash va u bilan yallig'lanish ko'rsatkichlari (CRP, ESR) o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.

Material va metodlar: Tadqiqotga RA tashxisi qo'yilgan 60 nafar bemor jalb qilindi (ayollar — 46, erkaklar — 14, o'rtacha yosh 51 ± 9 yil). Barcha bemorlarda gemoglobin (Hb), gematokrit, ferritin, CRP va ESR ko'rsatkichlari aniqlanib, kasallik faolligi DAS28 indeksi orqali baholandi. Bemorlar anemiyasi bor ($n=32$) va anemiyasi yo'q ($n=28$) guruhlariga ajratildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalariga ko'ra: Anemiya RA bemorlarining 53,3 % da aniqlangan. Anemiyasi bor bemorlarda o'rtacha Hb darajasi 102 ± 9 g/l, anemiyasi yo'qlarda esa 127 ± 8 g/l bo'lgan. CRP va ESR ko'rsatkichlari anemiyasi bor guruhda sezilarli darajada yuqori bo'lgan ($p < 0.01$). Anemiya mavjud bemorlarda DAS28 indeksi o'rtacha $5,1 \pm 0,8$, boshqalarida esa $4,2 \pm 0,6$ bo'lgan.

Xulosa: Revmatoid artridda anemiya tez-tez uchraydi va u kasallik faolligining oshishi bilan chambarchas bog'liq. Anemiya yallig'lanishning davomiyligini ko'rsatadigan muhim laborator belgidir. Shuning uchun RA bilan og'rigan bemorlarda gemoglobin darajasini muntazam nazorat qilish va anemiyani erta davolash kasallik kechishini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: revmatoid artrit, anemiya, CRP, ESR, DAS28, yallig'lanish.

